



## Matnazar Abdulhakim Ogahiy ijodining mohir tatqiqotchisi.

UrDU o'qituvchisi

Xajiboyev Kishin

**Annatatsiya:** Bu maqolada shoir, mohir tarjimon, munaqqid Matnazar Abdulhakimning Ogahiy ijodi bo'yicha qilgan tadqiqotlari xususida ba'zi mulohazalar yoritilgan. Asosan "Mangulik jamoli" kitobidagi "Bulbul tushlari", "Shifobaxsh dard" nomli maqolalariga to'xtalib o'tilgan.

**Аннотация:** В этой статье представлены некоторые сведения об исследованиях поэта, опытного переводчика и критика Матназара Абдулхакима о творчестве Агахи. В основном упоминаются статьи «Булбул тушлари» и «Шифобахш дард» в книге «Мангулик жамоли».

**Annotation:** This article provides some insights into the research of the poet, skilled translator, and critic Matnazar Abdulhakim on Agahi's work. The articles "Bulbul tushlari" and "Shifobaxsh dard" in the book "Mangulik jamoli" are mainly mentioned.

**Kalit so'zlar:** badiiyat, mavzu, mahorat, falsafiy ruh, fano,

Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligining muhim sohalaridan biri – ogahiyshunoslik takomilida yangi bosqich bo'ldi. Bu bosqichda buyuk shoir, tarjimon va tarixchi Ogahiy merosini mustaqillik mafkurasi, milliy g'oya mezonida o'rganish, tadqiq va targ'ib qilish kuchaydi. Ogahiyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, Ogahiy asarlari bo'yicha maqolalar va risolalar yaratish ishlarini amalga oshirishda taniqli shoir, tarjimon va tadqiqotchi Matnazar Abdulhakimning xizmatlari beqiyodir.

**Materiallar:** Matnazar Abdulhakimning "Mangulik jamoli" kitobi mumtoz adabiyotimizning bir bo'lagi bo'lmish Xiva adabiy maktabini tadqiq etadi. Kitobdan o'rin olgan Ogahiy ijodi haqidagi "Bulbul tushlari", "Shifobaxsh dard" nomli maqolalari.

"Mangulik jamoli" kitobi mumtoz adabiyotimizning bir bo'lagi bo'lmish Xiva adabiy maktabini tadqiq etadi. Kitobdan ilmiy maqolalar bilan birga Xiva adabiy maktabiga daxldor shoirlarning forsiy tildagi she'rlari tarjimasini ham o'rin olgan. Shu o'rinda Matnazar Abdulhakimning ayni shu kitobdan o'rin olgan "Bulbul tushlari" nomli maqolasi haqida to'xtalishni joiz topdik. Maqola Ogahiy ijodi haqida bo'lib, Matnazar Abdulhakim Ogahiy g'azallarini sharhlaydi, har bir sharh o'zining



ilmiy va diniy asosiga ega ekanligi xarakterlidir. “Siymoda aks etgan siymo” maqolasida esa Pahlavon Mahmud ruboiylarini tahlil etadi. Klassik shoirlarni tadqiq etish tadqiqotchidan yuksak tafakkur va chuqur bilimni talab etadi. Yuksak tafakkur va chuqur bilim esa, albatta, yuksak didli kitobxon bo‘lishni va tinimsiz mutolaani talab etadi.

Matnazar Abdulhakim Ogahiy g‘azallarini sharhlaydi, har bir sharh o‘zining ilmiy va diniy asosiga ega ekanligi xarakterlidir. “Siymoda aks etgan siymo” maqolasida esa Pahlavon Mahmud ruboiylarini tahlil etadi. Klassik shoirlarni tadqiq etish tadqiqotchidan yuksak tafakkur va chuqur bilimni talab etadi. Yuksak tafakkur va chuqur bilim esa, albatta, yuksak didli kitobxon bo‘lishni va tinimsiz mutolaani talab etadi.

Matnazar Abdulhakim mumtoz adabiyotni shunchaki ziyrak o‘quvchi sifatida emas, olim kishining teran nigohi ila mutolaa qildi. Ilmiy tadqiqotlarida bu tadqiqning sabablarini ham keltirib o‘tadi. Shu jumladan, “Arjumand so‘z” nomli maqolasida shunday deydi: “So‘z ushbu zamon va kelajak uchun yoziladi. Demoqchimizki, Ogahiy zamon ahlining so‘zuqmaslari dastidan kelajakka, jumladan, bizga ham shikoyat qiladi. Binobarin, buyuk shoirimizning zamondosh johillari ustidan bizga qilayotgan shikoyati uning bizga bog‘lagan umidi, bizning zimmamizga yuklab ketgan mas‘uliyati, bizga qoldirgan vasiyati hamdir”<sup>107</sup>. Shoir bu iqrorlariga she’rlarida ham ishora qiladi:

Seni o‘qib nidolar topdim,  
O‘zimdan ko‘p xatolar topdim.  
Alangali qo‘shiqlarimga  
Xayolimdan sadolar topdim.<sup>108</sup>

Matnazar Abdulhakimning donishmand inson va shunga yarasha donishmand shoir ekanligi haqida shogirdlari, do‘st-birodarlari “ko‘p va xo‘b” yozishgan. Jumladan, ustoz yozuvchi Nabijon Boqiy ta’biricha: “Matnazar og‘a to‘kis qomusga o‘xshardi. U bilan har qanday mavzuda gaplashish mumkin edi. Suhbat malakali bo‘lard. Bachkana mavzular o‘z-o‘zidan chetga chiqib qolardi, Matnazar og‘a o‘tirgan

<sup>107</sup> Matnazar Abdulhakim, Mangulik jamoli, Xorazm Ma‘mun akademiyasi nashriyoti, Xiva, 2009-yil. 24-bet.

<sup>108</sup> Matnazar Abdulhakim, Tanlangan asarlar, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2017-yil. 32-bet.



davruga bachkana mavzular yaqinlasha olmasdi”<sup>109</sup>. Matnazar Abdulhakim haqida shoir Mahmud Rajab shunday yozadi: “Navoiy, Bedil, Rumiylar mutolaasida charchash nimaligini bilmas, o‘qigan sari kuchga to‘lib borardi. Yonida o‘tirgan biz tez charchab qolardik. Biz iltimos qilmaguncha mutolaani to‘xtatmasdi. Saviyasi past odamlar bilan gaplashganda tez charchab qolardi. Darmoni qurirdi”<sup>110</sup>. Shogirdlari, tengdosh ijodkorlarning xotirlashicha, mumtoz adabiyot mutolaasi Matnazar Abdulhakimning doimiy odati bo‘lgan va ruhiyat oromi uchun shoir bu odatni kundalik vazifa qilib olgan. Matnazar Abdulhakim hazrat Ogahiyning “til tiyig‘ini tortib, ma’noning mulkini olgan mahoratli san’atkor” deya ta’riflaydi. Uning badiiy qudrati haqida fikrlar ekan, shuni ham alohida ta’kidlab: “Yosh Muhammadrizoning “til tiyig‘i” Alisher Navoiyning mahorat maktabida charxlangan va sayqal topgan” – deya aytib o‘tadi. Haqiqatdan ham Ogahiy nazmida Navoiydan o‘rganish izlari, ulug‘ san’atkor ta’siriga berilish, undan qutulolmaslik, ustozning turli g‘oya va ifodalarni o‘zgacha talqinlarda sharhlash ham ko‘rinib qoladi.

So‘z inson ko‘nglida bir gavhari qiymatbaho,

Oni xor etma debon har xushi hayvonga so‘z<sup>111</sup>.

Shoir, tarjimon, tadqiqotchi Matnazar Abdulhakimning Ogahiyning chin ma’nodagi tushunish, aniqrog‘i, idrok etish borasidagi ko‘p yillik mehnat samarasi o‘laroq Matnazar Abdulhakim Muhammad Rizo Ogahiyning o‘z devoni debochasida ta’kidlagan: “kishidin to qiyomatgacha boqiy qoladurg‘on yodgor va farzandi saodatkor yaxshi so‘zdirkim, ango zamon havosining ofati zarari aslo yetushmas va davron inqilobining g‘ubori asari hargiz ahvoli boshig‘a tushmas. Va vujudi adam qismatidin muarro, va baqosi fano tuhmatidin mubarrodur. Alqissa, so‘z martabasi nihoyatda baland va so‘z ahli hamisha aziz va arjumanddir”<sup>112</sup> misralarini keltirib o‘tadi. Bizga ma’lum bo‘lgan Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror”da ham so‘zning ta’rif-tavsifiga bir bob bag‘ishlangan. Ushbu o‘n to‘rtinchi bobning nasriy sarlavhasidayoq

<sup>109</sup> Matnazar Abdulhakimni eslab... , Toshkent, 2016-yil, 98-bet.

<sup>110</sup> Matnazar Abdulhakimni eslab... , Toshkent, 2016-yil, 201-bet.

<sup>111</sup> Matnazar Abdulhakim, Mangulik jamoli, Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2009 y. 65-bet.

<sup>112</sup> Matnazar Abdulhakim, Mangulik jamoli, Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2009 y. 74-bet.



hazrat Navoiy soʻzning inson vujudini yorituvchi yorugʻ yulduz ekanini, inson tanasi bir maʼdan boʻlsa, soʻz oʻsha maʼdanning qimmatbaho javohiri ekanini taʼkidlaydi:

“Soʻz taʼrifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti maʼdanining javohiri serobi durur...”<sup>113</sup>.

Yaxshi insonlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga ularning yaxshi soʻzlari sabab boʻlishini, fazilatli odamlarning oʻzaro ulfatliklariga ham soʻzlarining yoqimli ekani vosita boʻlishini tasvirlaydi.

Tadqiqotchi soʻz oʻzi izhor qilayotgan mazmundagi buyum yoki jonzotdan uzoq hayot kechirishi mumkinligini, yani, garchi ajdoholar yashab oʻtishgan, hayotga qaytmasliklari muqarrar boʻlsada, toki ajdaho soʻzi bor ekan ajdaho ruhi tirik, shunikdek, ajdaho ruhi mavjud ekan ajdaho soʻzi barhayotligini aytadi. Muhammad Rizo Ogahiyning soʻz haqidagi fikrlarini, soʻz inikosi ekan, shoir uchun, soʻz ahli uchun soʻz – baxt, soʻz-kulaftir. Madomiki, etibor topmagan bir nafar shoir bor ekan, eng oliy eʼtibordagi shoir ham faryod chekishda davom etishini Ogahiyning quyidagi ikki misrasi orqali taʼkidlaydi.

Soʻz ichra, Ogahiy bulbuldek aylab xushnavoligʻlar

Makonim chugʻzdek doim xarob oʻlgʻongʻa yigʻlarman<sup>114</sup>

Matnazar Abdulhakim Muhammad Rizo Ogahiyning qalamiga mansub, bevosita, soʻzning inson hayotidagi ahamiyatiga bagʻishlangan gʻazallari sheʼr aslahaxonasida oʻziga xos salmoqli oʻrin tutishini Ogahiyning misralarini misol sifatida keltirish orqali mohirona izohlaydi.

<sup>113</sup> Alisher Navoiy, Mukammal asarlar toʻplami, Yigirma tomlik, yettinchi tom, Toshkent, Fan, 1991-yil, 94-bet.

<sup>114</sup> Matnazar Abdulhakim, Mangulik jamoli, Xorazm Maʼmun akademiyasi, 2009 y. 15-bet.



Ma'lumki, durru javohir necha million yillar davomida safarda durru javohir shakliga kirib, aqllarni hayratga soladi. Hayvon uchun uning ma'nosi yo'q. Hayvonning qayg'usi faqat qorin, faqat yem hashak. Hayvon faqat oldiga qo'yilgan yem xashakni, kunjora-yu samonni "tushunadi".

So'zni mafhum aylamak nofahmga mushkuldurur,

Ya'ni, "oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi, og'ziga kelganni demoq nodonning ishi" ta'biridagi baytni keltiradi.

Matnazar Abdulhakim nazarida Ogahiy hasadgo'ylarga o'zining qaqshatqich la'natini o'qiydi. Ularni shayton bilan tenglashtiradi. Ogahiy nazarida hasadgo'ydan qabih, hasadgo'ydan murdat yo'qligini quyidagi mislarar orqali bayon etadi.

So'z qabul ummidi birla demagil hosidg'akim,

Odami ma'qul qila olg'ay qachon shaytong'a so'z<sup>115</sup>.

Demak, so'z aytishdan, so'z tinglashdan maqsad yuqoridagi misralarda ko'rsatib berib ketgan illatlarning ziddi bo'lgan fazilatlarga ega komil inson bo'lib hayot kechirmoq har bir kishining fazifasi ekanligini anglatmoqdir.

So'z ushbu zamon va kelajak uchun yoziladi. Demoqchimizki, Ogahiy zamon ahlining so'zukmaslari dastidan kelajakka, jumladan, bizga ham shikoyat qiladi. Buyuk shoirimning zamondosh johillari ustidan bizga qilayotgan shikoyati uning bizga bo'lg'on umidi, bizning zimmamizga yuklab ketgan ma'suliyati, bizga qoldirgan vasiyati hamdir. Biz Muhammad Rizo Ogahiyning umidini oqlab, zimmamizga yuklagan mas'uliyatini dildan xis etib hamda vasiyatlariga amal qilib yashasak, so'z qadrini, demakki, o'z qadrimizni ham biladigan dono va mag'rur avlod bo'lib kamol topamiz.

Inson ko'zi bilan ko'rilgan, aqliy va xissiy idroki bilan anglangan borliq dunyoning buyuk sohibi Ollohnining yaratuvchanlik qudrati mahsulidir va shuning uchun ham Tangri taolo hukmidadir. Inson jamiki jamod va mahluqoddan ustun qilib yaratilgan ekan. Uning "Shariflig'" tili, qalbi va aqli bilandir. Mo'jiza va hikmatlarning manbai bo'lgan Quroni karimda yaratganning o'zi shunday marhamat qiladi: So'zga quloq tutib, uning

<sup>115</sup> Matnazar Abdulhakim, Mangulik jamoli, Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2009 y.



eng go‘zaliga ergashadigan zotlarga xabar bering! Ana o‘shalar Olloh hidoyat qilgan zotlardir! Va ana o‘shalargina aql egalaridir”! So‘z Muhammad Rizo Ogahiy ijodida mavzu sifatida ham baland mavqega ega. Shoir mulkining oliy martabali ijodkori sifatida bu quroldan hayratlanarli mohorat bilan foydalanib qolmasdan o‘z o‘quvchilarini so‘zdan oqilona bahramand bo‘lishga, bu benazir san’atni ko‘z qorachig‘idek ardoqlashga da’vat qilib kelyapti.

#### Adabiyotlar

1. Matnazar Abdulhakim, “Mangulik jamoli”.
2. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, Yigirma tomlik, yettinchi tom.
3. Matnazar Abdulhakimni eslab...
4. Matnazar Abdulhakim, Tanlangan asarlar.